

**Keys ta'lim texnologiyasi metodlarining turlari, amalga oshirish
bosqichlari, o'ziga xosligi va ulardan biologiya darslarida foydalanishning
samaradorligi**

K.R.Yo'ldashev - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya kafedrasida dotsent, b.f.f.d., kopalboyoldashev@gmail.com

Z.R.Tajiyev - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya kafedrasida dotsent, q.x.f.n. zokirtajiyev@gmail.com

Z.J.Qurbondurdiyev - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat
Universiteti biologiya mutaxassisligi magistranti.zulfiqorqurbondurdiyev@gmail.com

Sh.O.Odamboyeva - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya mutaxassisligi magistranti. shaydoodamboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Keys -stadi metodining turlari, bosqichlari, o'ziga xosligi hamda Zoologiya darslarida "Sutemizuvchilar sinfi bobiga oid mavzularni o'qitishda mini- keyslardan foydalanishning afzalliklari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Shu bilan birga yovvoyi tur sutemizuvchilarning kamayib ketish sabablari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Keys-stadi, teriologiya, muammoli vaziyat, sabab, yechim, mini keys, multimedia-keys, video keys, yovvoyi sutemizuvchilar, prognostik tahlil.

Аннотация. В данной статье изложены виды, этапы, особенности метода кейс-стади, а также мнения о преимуществах использования мини-кейсов при преподавании тем, относящихся к главе "Класс млекопитающих" на уроках зоологии.

Ключевые слова: Кейс- стади, териология, проблемная, ситуация, причина решение, мини кейс, мультимедийный кейс, видеокейс, дикие млекопитающие, прогностический анализ.

Abstract. This article discusses the types, stages, and features of the case study method, as well as the advantages of using mini-cases in teaching topics related to the "Mammals Class" chapter in zoology lessons.

Keywords: Case study, theriology, problem situation, cause, solution, mini case, multimedia case, video case, wild mammals, prognostic analysis.

Kirish. Keys stadi inglizcha case – aniq vaziyat, study – ta'lim so'zlarining birikuvdan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy

ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Natija va munozara.Keys turlari.Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi: 1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar; 2) aniq vaziyat bayoni; 3) keys topshirig'i.Keysning quyidagi turlari mavjud:

- 1.Bosma shakldagi keys (ko'rgazmali, grafik, jadval, diagramma, illustratsiya)
- 2.Multimedia-keys (so'nggi vaqtlarda keng qo'llashni talab etayotgan).
- 3.Video keys (film, audio va video materiallardan iborat bo'lishi mumkin).

Keys – stadi metodida qo'llaniladigan tahlil (analiz) turlari.

- 1.Muammoli tahlil,
- 2.tizimli tahlil,
- 3.prakseologik tahlil,
- 4.prognostik tahlil.

Keys-metodini amalga oshirish bosqichlari:

- 1.Keys bilan tanishuv (individual).

Asosiy muammoni (o'quv muammosini) ajratib olish va o'rganish (individual va

G'oyalar yig'ish va muammoning yechimini izlash (kichik guruhlarda).

Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalarni taqdimoti, tahlil va baholash (o'qituvchi

Keys yechimi va tavsiyalar (o'qituvchi, kichik guruhlar va individual).

Keys-stadining o'ziga xosliklari:

Izlanishga doir faoliyatning mavjud bo'lishi.

Jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

Individual, guruhli va jamoaviy ish shakllari integratsiyasi.

Xil-xil o'quv loyihalarini ishlab chiqish.

Muvaffaqiyatga erishish uchun talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish.

Talabalar tomonidan keysni yechish bosqichlari:



Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar talabalarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Shuning uchun odatda keys ikki bosqichda tashkil qilinadi.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyan tashqari)ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish.

Talaba mustaqil ravishda:

- 1) keys materiallari bilan tanishadi;
- 2) taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- 3) muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- 4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
- 5) taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bo'yicha jamoa bo'lib ishlash.

Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:

1. guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
2. yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtayi nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;
3. muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadam-baqadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
4. taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

- 1) real vaziyat yechimiga doir o'z variantlarini taqdim etadilar;
- 2) tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydilar va yechimning to'g'riligini asoslaydilar;
- 3) boshqa guruh a'zolarining savollariga javob beradilar va o'z takliflarini asoslaydilar.

Jamo bo`lib keys ustida ishlash tartibi quyidagicha:

1. Guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarining muhokamasi;
2. Taklif etgan yechimlarning o`zaro baholanishi;
3. Taklif etilgan yechimlarning hayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (talabalar va o`qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

Biologiya darslarida vaziyatdan chiqib muammoning hajmidan kelib chiqib keys yoki mini keyslaradan foydalanish mumkin. Kichik guruhlarda ishlaganda bir necha keyslardan ,keys№1, keys№2, keys№3 va hakazo foydalanib darslarni olib borish mumkin.

Keys.№1.

Muammoli vaziyat

Xordalilar tipiga kiruvchi sinflar ichida tur sonining ko`pligi jihatdan sutemizuvchilar sinfi oldingi o`rinda tursa ham keyingi yillarda yovvoyi sutemizuvchilarning soni juda kamayib ketgan. O`zbekistonda ayrim tur sutemizuvchilar umuman yo`qolib ketish arafasida turibdi. Bu hozirgi kunnig dolzarb muammolardan biridir.

Sabablar:

Birinchidan. Sutemizuvchilar va boshqa organizmlar uchun ular yashayotgan, muhit toza va tarkibi normal holatda bo`lishi kerak. Keyingi yillarda o`rmon, to`qay, daryo, ko`l va boshqa tabiiy suv havzalariga, atmosferaga turli xil ishlab chiqarish korxonalaridan ajralib chiqayotgan chiqindilar ajralib chiqmoqda. Bu esa suvdagi kislorod miqdorini kamaytirib, suvdagi va boshqa yashash joylaridagi oziq moddalar tarkibini o`zgartirmoqda, hatto zaharlamoqda.

Ikkinchidan. Qishloq xo`jalik ekinlarini ekish maqsadida tabiiy muhitlar, to`qay, o`rmonlar, ko`llar va chuchuk suvli botqoqliklar ekin maydonlariga aylantirilmoqda. Natijada sutemizuvchilar ko`payib rivojlanadigan, va yashirinadigan makonlar yo`qolib bormoqda. Sutemizuvchilarning tabiiy yashash muhiti qisqarmoqda, bu esa ularning sonini nihoyatda kamayishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan. Orol dengizining (O`zbekiston) suv sathining haddan ziyod kamayib ketishi, suv va tuproq sho`rlanishining me`yoridan ortib ketishi natijasida tuproqdagi va chuchuk suvlardagi mineral tuzlar miqdorining nihoyatda ortib ketishi kuzatilmoqda. Bu esa yovvoyi hayvon turlariga o`z ta`sirini o`tkazmoqda

To`rtinchidan. Ovlanadigan turlarning ovlash mavsumining belgilanishiga

qaramasdan har yili minglagan sutemizuvchilar ovlanadi. Hayvonlarning rejasiz, keragidan ortiq ovlanishi, hatto brokanerlarning yashirincha yo'llar bilan sutemizuvchilarni ovlashi, mahalliy aholini iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida ov qilishi buning yaqqol misolidir.

Beshinchidan. Teriologiya fani rivojlanib borishiga qaramasdan ko'plab ilmiy adabiyotlarni nashr qilinishiga qaramasdan ba'zi tur sutemizuvchilarning tur tarkibi, biologiyasi, ekologiyasi va ko'paytirish yo'llari to'liq o'rganilgan emas.

Oltinchidan. Ko'plab hududlarida sutemizuvchilarni ko'paytirish va muhofaza qilish tadbirlari aniq reja asosida to'liq ishlab chiqilmagan.

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillar	Muammoni kelib chiqish sabablari	Guruh yechimi	Natija
--------------------------------	----------------------------------	---------------	--------

Xulosa.Keys-stadi metodi xozirgi kunda keys-ta'lim texnologiyasi darajasiga ko'tarilgan.Undan foydalanish o'qituvchi iqdidoriga bo'g'liq.Turli xil keyslardan foydalanganda talabalarning(o'quvchilarning) mustaqil va erkin fikrlashida, o'z g'oyasini ifoda etish qobiliyatining rivojlanishida,fanga nisbatan qiziqishini yanada ortishida, o'z shaxsiga nisbatan mas'uliyatlilik hissining kuchayishida hamda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining paydo bo'lishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.K.R.Yo'ldashev ,G.K.Isakova,M.O.Atayeva. Zoologiya darslarini o'qitishda keys stadi ta'lim texnologiyasidan foydalanish. CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD.Volume 02, Issue 1, 2025

2. Abdullayeva M.M,Fuzailova G.S.,Sodiqova K.A.Qo'ziyev Sh.N. Biologiya o'qitish metodikasi.Toshkent .2022.

3..Dadayev S., Saparov Q. Umurtqalilar zologiyasi. Toshkent. Turon-Iqbol nashriyoti, 2019 yil. 720 b.

4.Tolipova J.O., A.T.Gafurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. T., 2012 y.